

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TALABALAR MAQSADGA INTILUVCHANLIGI ARXITEKTONIKASIDA MOTIVATSION, MATONATLILIK VA IRODAVIY KOMPONENTLARNING GENDER DETERMINATSIYASI

Babadjanova Sayyora Xushnutovna

Ma'mun universiteti, professor.

e-mail: sayyora1504@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0596-2161>

Annotatsiya.

Maqolada talabalarda matonatlik, akademik motivatsiya va irodaviy sifatning gender xususiyatlari empirik jihatdan o'rganilgan. Natijalar ayol talabalarda qiziqishlar barqarorligi, introyeksiyalangan motivatsiya, matonat va chidamlilik, erkak talabalarda esa o'z-o'zini hurmat qilish, eksternal va muvaffaqiyat motivatsiyasi, jasorat hamda tashabbuskorlik ustunligini ko'rsatdi. Kognitiv motivatsiya, o'z-o'zini shakllantirish, maqsadga intilish va qat'iylik invariant xususiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: talabalar, gender xususiyatlari, matonatlik, akademik motivatsiya, irodaviy sifatlar, Mann–Whitney U-testi.

ГЕНДЕРНАЯ ДЕТЕРМИНАЦИЯ МОТИВАЦИОННОГО КОМПОНЕНТА, НАСТОЙЧИВОСТИ И ВОЛЕВЫХ КОМПОНЕНТОВ В АРХИТЕКТОНИКЕ ЦЕЛЕУСТРЕМЛЁННОСТИ СТУДЕНТОВ

Бабаджанова Сайёра Хушнудовна

Университет Маъмуна, профессор.

Аннотация.

В статье эмпирически исследованы гендерные особенности настойчивости, академической мотивации и волевых качеств студентов. Результаты показали, что у студенток преобладают устойчивость интересов, интроецированная мотивация, настойчивость и выносливость, тогда как у студентов мужского пола — самоуважение, экстернальная мотивация и мотивация достижения, смелость и инициативность. Установлено, что когнитивная мотивация, самоформирование, целеустремлённость и решительность имеют инвариантный характер.

Ключевые слова: студенты, гендерные особенности, настойчивость, академическая мотивация, волевые качества, U-критерий Манна–Уитни.

GENDER DETERMINATION OF MOTIVATIONAL, PERSEVERANCE, AND VOLITIONAL COMPONENTS IN THE ARCHITECTURE OF STUDENTS' GOAL-ORIENTEDNESS

Babadjanova Sayyora Xushnutovna

Mamun University, Professor.

Abstract.

The article presents an empirical study of gender differences in perseverance, academic motivation, and volitional qualities among university students. The results showed that female students demonstrated higher levels of consistency of interests, introjected motivation, perseverance, and endurance, whereas male students showed higher levels of self-esteem, external and achievement motivation, courage, and initiative. Cognitive motivation, self-development, goal orientation, and determination were found to be gender-invariant characteristics.

Keywords: university students, gender differences, perseverance, academic motivation, volitional qualities, Mann–Whitney U test.

Kirish. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub maqsadi nafaqat nazariy bilimga ega mutaxassis tayyorlash, balki zamonaviy muhitda mustahkam irodali, maqsadiga sodiq va amaliy qiyinchiliklarga chidamli inson kapitalini shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida yoshlarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa qilib belgilangan [2]. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek:

"Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekistonning poydevori – bilim, ma'rifat va yuksak ma'naviyatdir. Yoshlarimizning nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki har qanday hayotiy sinov va qiyinchiliklarni yenga oladigan mustahkam iroda, matonat va aniq hayotiy pozitsiyaga ega shaxs bo'lib kamol topishi jamiyatimiz kelajagini belgilaydi" [3].

Shuningdek, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-562) va gender strategiyasiga oid davlat hujjatlari ta'limda ham imkoniyatlar tengligini ta'minlashni talab etmoqda [1]. Teng imkoniyatlar muhitida esa talaba-yoshlarning ruhiy imkoniyatlari hamda irodaviy tayyorgarligidagi gender xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish ehtiyoji yuzaga keladi. Ushbu tadqiqotning bugungi jamiyatimiz uchun muhim va dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Zamonaviy mehnat bozori yoshlardan faqat diplom emas, balki uzoq muddatli qiyinchiliklarga sabr bilan

bardosh berish hamda tanlagan sohasiga uzoq vaqt sodiq qolish kabi matonatlik xususiyatlarini talab qilmoqda.

2. Erkak va ayol talabalarda ruhiy tayyorgarlik va harakatga keltiruvchi kuch turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim talabalar tashqi raqobat va erishilgan natijadan kuch olsa, boshqalari burch hissiyoti va ichki mas'uliyat tufayli harakat qiladi. Gender xususiyatlarini bilish har bir talabaga individual va samarali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

3. Oliy ta'lim psixologlari va murabbiylar uchun talabalarning irodasini baquvvat qilish hamda ulardagi ruhiy tushkunlik va harakatsizlikni korreksiyalash bo'yicha aniq, amaliy ko'rsatkichlarga tayanuvchi uslubiyot zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, talabalik davrida maqsadga intiluvchanlikni motivatsion, matonatlik va irodaviy sifatning yaxlit tizimi sifatida va ularning gender xususiyatlari asosida tadqiq etish Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-psixologik rivojlanish maqsadlariga to'liq mos keladi.

Adabiyotlar sharhi. Maqsadga intiluvchanlik, motivatsiya va irodaviy regulyatsiya (o'z harakat va emotsiyalarini boshqara olish) psixologiya fanida shaxsning yaxlit va mukammal xususiyatlari sifatida atroflicha tadqiq etilgan. Xorijiy psixologiyada maqsadga intilish va motivatsion resurslar E. Desi va R. Rayanning "Self-Determination Theory" (O'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi) doirasida ko'rib chiqilgan [7]. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson harakati ikki xil turtki bilan boshqariladi:

1. Ichki motivatsiya — faoliyatning insonning o'z xohishi va qiziqishi bilan bajarilishi;

2. Introyeksiyalangan motivatsiya — insonning o'zini aybdor his qilmaslik, mas'uliyat va burch hissiyoti sababli harakat qilishi.

Shaxsning uzoq muddatli maqsadlarga erishishdagi ruhiy quvvati va bardoshlilik esa A. Dakvort tomonidan matonatlik fenomeni sifatida kashf etilgan [6]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, matonatlik ikki asosiy ustunga tayanadi:

Sa'y-harakatda qat'iylik. Qiyinchiliklarga qaramay, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish va sabr ko'rsatish.

Qiziqishlar barqarorligi. Vaqt o'tsa ham tanlangan maqsaddan va sohadan og'ishmaslik, unga sodiq qolish.

MDH psixologiya maktabida irodaviy regulyatsiya, faoliyat motivatsiyasi va shaxsning maqsadga intiluvchanligi masalalari fundamental darajada o'rganilgan. Xususan, S. L. Rubinshteyn va A. N. Leontev faoliyat va shaxs intilishlarining motivatsion tuzilmasini yoritib bergan bo'lsa [14; 17], L. I. Bojovich va V. A. Ivannikov irodaviy regulyatsiyaning o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini asoslagan [5; 11]. Talaba-yoshlar psixologiyasi hamda gender xususiyatlarini tadqiq etishda I. S. Kon, E. P. Ilyin va B. G. Ananyevlarning ilmiy qarashlari muhim metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi [4; 10; 13].

O'zbekistonda irodaviy regulyatsiya va talaba shaxsining rivojlanishi masalalari psixologiya maktabi vakillaridan E. G'oziyev, V. Karimova, B. Qodirov, N. Sog'inov va Z. Nishanova kabi taniqli olimlarimizning tadqiqotlarida o'z aksini topgan [9; 12; 15; 18]. Ushbu ishlarda talabalik davridagi kasbiy va shaxsiy shakllanish, irodaviy sifatning (jasorat, chidamlilik, tashabbuskorlik) namoyon bo'lish dinamikasi yoritilgan.

Shunga qaramay, zamonaviy oliy ta'lim sharoitida talabalar maqsadga intiluvchanligining yaxlit tuzilishini motivatsion yo'nalganlik, matonatlik va irodaviy komponentlarning bir-biriga bog'liq tizimi sifatida hamda aynan gender determinatsiyasi (ya'ni ushbu xususiyatlarning erkak va ayol talabalarda namoyon bo'lishidagi o'ziga xos farqlari va sabablari) nuqtayi nazaridan kompleks empirik tadqiq etish masalasi hali ham yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu empirik tadqiqotda talabalar maqsadga intiluvchanligi arxitektonikasidagi motivatsion, matonatlik hamda irodaviy komponentlarning gender xususiyatlarini aniqlash maqsadida majmuaviy psixodiagnostik uslubiyotlar va matematik-statistik tahlil mezonlaridan foydalanildi. Tadqiqot tanlanmasi oliy ta'lim muassasalarining 310 nafar talabasini (197 nafar ayol va 113 nafar erkak talabalar) qamrab oldi. Empirik ma'lumotlarni yig'ishda quyidagi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalar majmuasidan foydalanildi:

1. A. L. Dakvort tomonidan ishlab chiqilgan "Maqsadga sodiqlik va matonatlikni aniqlash" metodikasi [6]. Ushbu metodika shaxsning uzoq muddatli maqsadlarga erishishdagi matonatlik darajasini ikki asosiy shkala — qiziqishlar barqarorligi va sa'y-harakatda qat'iylik bo'yicha baholashga xizmat qiladi.
2. T. O. Gordeyeva, O. A. Sechev va E. N. Osinlarning "Akademik motivatsiya shkalasi" metodikasi [8]. E. Desi va R. Rayanning "O'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi"ga asoslangan ushbu metodika talabalarning o'quv faoliyatidagi ichki (kognitiv motivatsiya, muvaffaqiyat motivatsiyasi, o'z-o'zini shakllantirish), introyeksiyalangan (ichki burch va mas'uliyat), tashqi (eksternal) hamda amotivatsiya darajalarini tashxislaydi [7].
3. N. E. Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan "Irodaviy sifatning rivojlanish darajasini baholash" metodikasi [19]. Ushbu uslubiyot shaxsning irodaviy regulyatsiyasini tashkil etuvchi yetakchi komponentlar — maqsadga intilish, jasorat, matonat, tashabbuskorlik hamda chidamlilik sifatlarining namoyon bo'lish darajasini o'lchaydi.

To'plangan empirik ma'lumotlarning taqsimot xarakteridan kelib chiqib, erkak va ayol talabalar guruhlari o'rtasidagi farqlarning statistik ishonchligini baholash uchun parametrik bo'lmagan Mann-Uitni U mezon qo'llanildi.

Natijalar tahlili. A. L. Dakvortning "Maqsadga sodiqlik va matonatlikni aniqlash" metodikasi bo'yicha olingan empirik ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili (Mann-Uitni U testi) talabalar matonatlik ko'rsatkichlarida jinsga xos psixologik manzara va muhim qonuniyatlarni ochib berdi (1-jadval).

1-jadval

A.L.Dakvort tomonidan ishlab chiqilgan "Maqsadga sodiqlik va matonatlikni aniqlash" metodikasi bo'yicha jins ko'rsatkichlari jihatidan statistik tahlil (Mann Uitni n=310)

	Jinsi	N	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U (manuitni mezon)	P
--	-------	---	---------------	-----------------	--------------------	---

Qiziqishlar barqarorligi	ayol	197	44,07	1109,00	1,458	,043*
	erkak	113	39,82	361,00		
	Jami	310				
Sa'y-harakatda qat'iylik	ayol	197	56,01	1281,50	2,781	,578
	erkak	113	53,80	389,50		
	Jami	310				

Izoh: $P < 0,05$.

Qiziqishlar barqarorligi shkalasi natijalariga ko'ra, ayol talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi erkak talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,458$; $p < 0,05$). Ushbu ko'rsatkich ayol talabalarining tanlangan kasbiy va ilmiy yo'nalishga uzoq vaqt davomida sodiq qolishi, turli chalg'ituvchi omillarga berilmasdan, diqqat va psixologik resurslarini yagona ustuvor maqsad atrofida jamlay olish salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Sa'y-harakatda qat'iylik shkalasi bo'yicha esa ayol va erkak talabalar guruhlar o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi ($U=2,781$; $p > 0,05$). Bu esa maqsad sari intilishning ijro bosqichida — to'siqlarni yengib o'tish, amaliy mehnat qilish hamda irodaviy kuchni safarbar etish borasida har ikkala jins vakillari birdek yuqori qat'iyat va teng imkoniyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

"Akademik motivatsiya shkalasi" metodikasi bo'yicha olingan empirik ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili (Mann-Uitni U mezon) amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval

"Akademik motivatsiya shkalasi" metodikasi bo'yicha jins ko'rsatkichlari jihatidan statistik tahlil (Mann Uitni $n=310$)

	Jinsi	N	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U (manuitni mezon)	P
Kognitiv motivatsiya	ayol	197	48,42	1863,00	2,093	,087
	erkak	113	52,08	437,00		
	Jami	310				
Muvaffaqiyat motivatsiyasi	ayol	197	31,48	1181,50	1,293	,033*
	erkak	113	39,88	358,50		
	Jami	310				
O'z-o'zini shakllantirish	ayol	197	45,30	1688,00	2,000	,066
	erkak	113	47,67	452,00		
	Jami	310				
O'z-o'zini hurmat qilish	ayol	197	19,57	1099,50	,887	,009**
	erkak	113	30,71	340,50		
	Jami	310				
Introyeksiyalash (ichki) motivatsiya	ayol	197	28,99	1017,50	1,050	,011*
	erkak	113	17,11	392,50		
	Jami	310				
Eksternal (tashqi) motivatsiya	ayol	197	23,08	1107,50	1,103	,023*
	erkak	113	30,71	352,50		
	Jami	310				
Amotivatsiya	ayol	197	24,02	1205,00	1,468	,044*
	erkak	113	31,89	335,00		
	Jami	310				

Izoh: $P < 0,05$; $P < 0,01$.

Kognitiv motivatsiya shkalasi natijalariga ko'ra, erkak va ayol talabalar ko'rsatkichi o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlanish aniqlanmadi ($U=2,093$; $p > 0,05$). Ushbu ko'rsatkich bilimlarni egallash va o'quv fanlarining mohiyatini anglashga bo'lgan kognitiv ehtiyoj har ikkala jins vakillarida birdek muhim va invariant xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Muvaffaqiyat motivatsiyasi shkalasi natijalariga ko'ra, erkak talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi ayol talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,293$; $p < 0,05$). Ushbu ko'rsatkich erkak talabalarining murakkab topshiriqlarni bajarish orqali yuqori natijalarga erishish, raqobatbardoshlik va g'oliblik hissini tuyishga intiluvchanligi yuqoriligidan dalolat beradi.

O'z-o'zini shakllantirish shkalasi natijalariga ko'ra ham erkak va ayol talabalar ko'rsatkichi o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlanish aniqlanmadi ($U=2,000$; $p > 0,05$). Ushbu ko'rsatkich ta'lim jarayonida o'z potensialini ro'yobga chiqarish va shaxsiy kamolotga erishish ehtiyoji jinsiy omilga bog'liq bo'lmagan holda barcha talabalarda teng namoyon bo'lishidan dalolat beradi.

O'z-o'zini hurmat qilish shkalasi natijalariga ko'ra, erkak va ayol talabalar ko'rsatkichlari o'rtasida statistik

jihtadan ishonchli farqlar kuzatildi ($U=0,887$; $p<0,01$). Ushbu ko'rsatkich erkak talabalarining ta'lim jarayonidagi yutuqlar orqali o'z qadr-qimmatini oshirish, shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish hamda o'zidan qoniqish hosil qilishga bo'lgan ruhiy ehtiyoji yuqoriligidan dalolat beradi.

Introyeksiyalangan (ichki burch) motivatsiya shkalasi natijalariga ko'ra, ayol talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi erkak talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,050$; $p<0,05$). Ushbu ko'rsatkich ayol talabalarda o'quv faoliyati va berilgan topshiriqlar tashqi rag'batlardan ko'ra ko'proq ichki mas'uliyat, burch hissiyoti hamda shaxsiy ruhiy majburiyat mexanizmlari bilan shartlanishidan dalolat beradi.

Eksternal (tashqi) motivatsiya shkalasi natijalariga ko'ra esa erkak talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi ayol talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,103$; $p<0,05$). Ushbu ko'rsatkich erkak talabalar motivatsiyasida tashqi muhit omillari — baholar, moddiy va ijtimoiy rag'batlar hamda kelajakdagi maqomni oshirish ehtiyoji yetakchi o'rin tutishidan dalolat beradi.

Amotivatsiya shkalasi natijalariga ko'ra ham erkak talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi ayol talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,468$; $p<0,05$). Ushbu ko'rsatkich o'quv faoliyati kutilgan tashqi rag'bat bilan ta'minlanmagan sharoitda erkak talabalarda ta'lim ma'nosining so'nishi hamda befarqlik holatining yuzaga kelish tendensiyasi nisbatan yuqoriroq ekanligidan dalolat beradi.

3-jadvalga ko'ra, N. E. Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan "Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash" metodikasi bo'yicha olingan empirik ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili (Mann-Uitni U mezon) amalga oshirildi.

3-jadval

N.E.Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan "Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash" metodikasi bo'yicha jins ko'rsatkichlari jihatidan statistik tahlil (Mann Uitni $n=310$)

	Jinsi	N	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U (manuitni mezon)	P
Maqsadga intilish	ayol	197	45,48	1724,50	3,500	,062
	erkak	113	37,29	515,50		
	Jami	310				
Jasorat	ayol	197	22,40	1178,00	1,669	,022*
	erkak	113	30,17	362,00		
	Jami	310				
Matonat	ayol	197	32,13	1009,50	0,451	,009**
	erkak	113	19,54	330,50		
	Jami	310				
Tashabbuskorlik	ayol	197	21,18	1242,00	1,857	,032*
	erkak	113	27,50	198,00		
	Jami	310				
Chidamlilik	ayol	197	29,83	1218,00	244,000	,044*
	erkak	113	24,17	322,00		
	Jami	310				

Izoh: $P<0,05$; $P<0,01$.

Matonat shkalasi natijalariga ko'ra, ayol va erkak talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi bo'yicha statistik jihatdan ishonchli farqlar kuzatildi ($U=0,451$; $p<0,01$). Ushbu ko'rsatkich ayol talabalarda uzoq muddatli qiyinchiliklar, ruhiy va jismoniy zo'riqlashlarga bardosh berish, o'z maqsadiga erishmagunicha bo'shashmasdan harakatni davom ettirish va emotsional barqarorlikni saqlay olish salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Jasorat shkalasi natijalariga ko'ra esa erkak talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi ayol talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,669$; $p<0,05$). Ushbu ko'rsatkich erkak talabalarda tavakkalchilik talab etiladigan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, noaniqlik va xavf-xatarga tik bo'lish hamda qiyin sharoitlarda cho'chimasdan harakat qilish xususiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Maqsadga intilish shkalasi natijalariga ko'ra, ayol va erkak talabalar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlanish aniqlanmadi ($U=3,500$; $p>0,05$). Ushbu ko'rsatkich o'z oldiga aniq hayotiy va akademik maqsadlar qo'ya olish hamda shu maqsadlar sari yo'nalganlik darajasi jinsiy omilga bog'liq bo'lmagan holda barcha talabalarda teng namoyon bo'lishidan dalolat beradi.

Tashabbuskorlik shkalasi natijalariga ko'ra esa erkak talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi ayol talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=1,857$; $p<0,05$). Ushbu ko'rsatkich erkak talabalarda yangi g'oyalar va faoliyat turlarini birinchilardan bo'lib boshlash, faol pozitsiyani egallash, o'z zimmasiga yetakchilik mas'uliyatini olish tendensiyasi nisbatan ustun ekanligidan dalolat beradi.

Chidamlilik shkalasi natijalariga ko'ra, ayol talabalarining o'rtacha rang ko'rsatkichi erkak talabalar ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli va ustun darajani namoyon etdi ($U=244,000$; $p<0,05$). Ushbu ko'rsatkich ayol talabalarda o'z emotsiyalari hamda xatti-harakatlarini jilovlay olish, salbiy impulsiv reaksiyalarni tiyish va qiyin vaziyatlarda xotirjamlikni saqlab, self-regulyatsiyani (o'z-o'zini boshqarishni) ta'minlash qobiliyati yuqoriligidan dalolat beradi.

beradi.

Xulosa

Olingan empirik natijalar va matematik-statistik tahlillar talabalarining matonatligi, akademik motivatsiyasi hamda irodaviy sifatleri tizimida genderga xos differensial qonuniyatlar mavjudligini ko'rsatdi:

Ayol talabalarda tanlangan maqsadlarga sodiqlik (qiziqishlar barqarorligi), ichki mas'uliyat (introyeksiyalangan motivatsiya), uzoq muddatli qiyinchiliklarga bardosh berish (matonat) hamda o'z-o'zini boshqarish (chidamlilik) ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ustunlik qayd etildi.

Erkak talabalarda esa shaxsiy qadr-qimmatni namoyon etish (o'z-o'zini hurmat qilish), tashqi rag'batlarga yo'nalganlik (eksternal motivatsiya), raqobatbardoshlik (muvaqqiyat motivatsiyasi), tavakkalchilik (jasorat) va yetakchilik (tashabbuskorlik) omillari bo'yicha ustunlik kuzatildi.

Bilim olishga bo'lgan kognitiv ehtiyoj, o'zini rivojlantirish (o'z-o'zini shakllantirish), maqsad qo'ya olish (maqsadga intilish) va amaliy qat'iyat (sa'y-harakatda qat'iylilik) har ikki jinsda bir xil va teng darajada namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-son Qonuni. – Toshkent, 2019. <https://lex.uz/uz/docs/-4494849>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b. <https://cspu.uz/iangi-zbekiston-strategiiasi>
4. Ананьев Б. Г. О человеке как объекте и субъекте воспитания // Избранные психологические труды: в 2 т. – Т. 2 / под ред. А. А. Бодалева и др. – Москва: Педагогика, 1980. – С. 10–127. <https://djvu.online/file/Lrnb4NdgPYZwY>
5. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Москва [и др.]: Питер, 2008. – 398 с. – ISBN 978-5-91180-846-4. <https://search.rsl.ru/ru/record/01003401943>
6. Duckworth A. L., Peterson C., Matthews M. D., Kelly D. R. Grit: Perseverance and Passion for Long-Term Goals // Journal of Personality and Social Psychology. – 2007. – Vol. 92, No. 6. – P. 1087–1101. – DOI: 10.1037/0022-3514.92.6.1087. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.92.6.1087>
7. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – XV, 371 p. – DOI: 10.1007/978-1-4899-2271-7. <https://doi.org/10.1007/978-1-4899-2271-7>
8. Гордеева Т. О., Сычёв О. А., Осин Е. Н. Опросник «Шкалы академической мотивации» // Психологический журнал. – 2014. – Т. 35, № 4. – С. 96–107. <https://publications.hse.ru/articles/118240237>
9. Ильин Е. П. Психология воли. – 2-е изд., перераб. и доп. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 368 с. – ISBN 978-5-388-00269-3. <https://lib.mgppu.ru/>
10. Иванников В. А. Психологические механизмы волевой регуляции: учебное пособие. – 3-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2006. – 208 с. – ISBN 5-469-01400-2. <https://lib.mgppu.ru/OpacUnicode/index.php?url=%2Fnotices%2Findex%2FIdNotice%3A48657%2FSource%3Adefault>
11. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b. – ISBN 978-9943-10-780-9. <https://kitobxon.com/oz/kitob/ijtimoiy-psixologiya>